



CHORVACHILIK SOHASI SHAKLLANISHIGA TA'SIR KO'RSATGAN IJTIMOIY-IQTISODIY OMILLAR

Qoraqalpoq davlat universiteti tayanch doktranti

Babayeva Zuxra Davronbek qizi

E-mail: zuxrababayeva2017@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqola Xorazm vohasi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti hamda chorvachilik sohasi shakllanishiga bag'ishlangan bo'lib, unda chorvachilikning paydo bo'lishi va voha aholisining asosiy mashg'ulotlari haqidagi asosiy ma'lumotlar bayon etilgan. Shuningdek, maqolada voha aholisining chorva turlari va o'ziga xos jihatlari dalillar orqali asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: muflon, arhar, argali, ibeks yovvoyi echki, "Kangyuy", Amudaryo, Turkmaniston, Toshxovuz, Ko'xna-Urganch, Ko'zaliqir, Xiva Qizilqum, Xo'jayli, Orolbo'yi, zebusimon mol, Petro-Aleksandorvsk, Orenburg, Boku, Buxoro, Qo'qon, Xiva Fors, Angliya Afg'oniston.

СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ФОРМИРОВАНИЕ ЖИВОТНОВОДСТВА

Докторант Каракалпакского государственного

университета Бабаева Зухра Давронбек кизи

E-mail: zuxrababayeva2017@gmail.com

Аннотация: данная статья посвящена социально-экономической жизни Хорезмского оазиса и становлению животноводческой отрасли, в ней изложены основные сведения о возникновении скотоводства и основных занятиях жителей оазиса. Также в статье фактически обоснованы виды домашнего скота и их специфика у обитателей оазиса.

Ключевые слова: муфлон, архар, архар, дикий козел, «Кангюй», Амударья, Туркменистан, Ташховуз, Кохна-Ургенч, Козаликир, Хива Кызылкум, Ходжалы, Аролбойи, зебу-крот, Петро-Александровск, Оренбург, Баку, Бухара, Кокан, Хива, Персия, Англия, Афганистан.

SOCIO-ECONOMIC FACTORS AFFECTING THE FORMATION OF THE LIVESTOCK INDUSTRY

Babayeva Zuxra Davronbek qizi

E-mail: zuxrababayeva2017@gmail.com

Abstract: this article is devoted to the socio-economic life of the Khorezm oasis and the formation of the cattle breeding sector, it describes the main information about the emergence of cattle breeding and the main occupations of the

oasis residents. Also, in the article, the types of livestock and their specific aspects of the inhabitants of the oasis are substantiated by evidence.

Key words: mouflon, arhar, argali, ibex wild goat, "Kangyuy", Amudarya, Turkmenistan, Tashkhovuz, Kokhna-Urganch, Kozalikir, Khiva Kyzylkum, Khojayli, Arolboyi, zebu-like mole, Petro-Aleksandorvsk, Orenburg , Baku, Bukhara, Kokan, Khiva, Persia, England, Afghanistan.

Xorazmning deyarli ikki ming yillik tarixi davomida hayvonlar turlari o'rtasidagi nisbatda muhim o'zgarishlar ko'rinib turibdi. Qayd qilish kerakki mayda shoxli mol, avvalo qo'ylar hamma davrda ham Xorazm chorvachiligida oldingi o'rinlarni egallaydi[1.18].

Ibtidoiy odamlar dastlab, oson qo'lga o'rgatilgan hayvonlarni xonakilashtirganlar. Itlardan keyin 7-8 ming yil burun qo'y va echkilar qo'lga o'rgatilgan. Qo'ylarning yovvoyi ajdodlari mavjud bo'lib, muflon, arhar va argali hisoblanadi. Echkilar qilichsimon va parsimon shoxli, hamda ibeks yovvoyi echkildan kelib chiqqan. Bundan 5-6 ming yil ilgari Osiyo va Yevropa to'ng'izlari xonakilashtirilgan [2.10].

Eramizdan oldingi V asrdan eramizning II asrigacha bo'lgan davr Xorazm tarixida "Kangyuy" davri deyiladi. Bu davrda Xorazmda yuksak rivojlangan chorvachilik mavjud bo'lgan. Tadqiqotchi V.I.Salkinning fikricha: bu davrda mahalliy chorvadorlarga qishloq xo'jalik mollari: qoramol, o'rkachli va o'rkachsiz tuya, qo'y, echki, cho'chqa, ot kabi jonivorlar ma'lum bo'lgan[1.24].

O'rta Osiyo mollarni urchitilgan va xonakilashtirilgan ilk hududlardan biri hisoblanadi. E. A. Bogdanov, U Dyurst, V.I. Gromova, B.S. Sivchik O'rta Osiyoni birinchilar qatorida xonakilashtirilgan mollarning vatani deb hisoblaydilar [3.13].

Ho'kiz va sigirlar Xorazm aholisi xo'jaligida doimo muhim rol o'ynagan. Buni biz qadimiy diniy e'tiqod va marosimlar bilan bog'liq rivoyatlardan ho'kiz va keyingi o'rinlarda qo'chqor va tuya alohida o'rin tutishini bilib olishimiz mumkin.

Sigir va buqalar umumiy nom bilan "mol" deyilgan. Buqalardan yerni haydashda asosiy vosita bo'lgan. Sigirlar suti kam, ammo buqalari chidamli bo'lgan. Ba'zan kambag'al oilalar yer bilan buqani ham ijara olgan. Oila a'zolari och qolsa, buqani so'yib go'shtini pullab, evaziga kichik buqa olib bog'lashgan. Buqa parvarishi va yerni haydashi bilan tajribali odam shug'ullangan. Chunki, shudgor payti temir buqaning oyog'ini kesishi va u nobud bo'lishi mumkin edi. Ularning narxi ham qimmat bo'lgan. Ular ham 4 yoshdan ishlashga tortilgan. Ishlash uchun buqalar kastratsiya qilingan. Buning uchun maxsus mutaxassis chaqirilgan va bahor paytida mollar oriq va kasallik tashuvchi chivinlar yo'q payti tanlangan. Bichilgan ho'kizlar mehnatga chidamli bo'lgan[4.55].

V.I. Salkin "O'rta Osiyo shaharlarining aholisi ilk temir asri va o'rta asrlardagi molining katta kichikligida ko'p farq bo'lmagan"- deya xulosa qiladi[5.117].

Eng qadimigi Xorazm yodgorliklarida ta'kidlanishicha Amudaryoning chap qirg'og'ida, Turkmanistonning Toshxovuz viloyatidagi Ko'xna-Urganch shahridan g'arbdagi Ko'zali-qirda qoramol, echki va qo'y muhim mollar hisoblangan. Bu erdagi tub aholining o'troq xo'jaligida chorvachilik dehqonchilikni ikkinchi o'ringa chekintirib, muhim ahamiyatga ega edi. Mol "Aholining asosiy boyligi", -deb yozadi S.P. Tolstov (1948) [1.25].

Tadqiqotchi M.N. Bogadanov o'zining "Xiva vohasi tabiati va Qizilqum sahrosi ocherklari" da voha aholisi mashg'ulotlarini ta'riflab, ularni etnik guruhlar asosida quyidagicha taqsimlaydi.

- 1) O'zbeklar – voha dehqonlari;
- 2) Qoraqalpoqlar – o'troq chorvadorlar;
- 3) Turkmanlar – yarim o'troq chorvadorlar [6.123].

Yana bir boshqa manbada aholining bir qismi XIX asr boshlarida ko'chmanchi chorvachilik bilan shug'ullangani haqida ma'lumot uchraydi.

Aholi tarkibida o'troq aholi ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholiga nisbatan ko'pchilikni tashkil etgan. XIX asr boshlarida aholining 40 % dan ortig'i ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi bo'lsa, shu asr oxiriga kelib, ular 15 % ni tashkil etgan. Xo'jalik mashg'ulotlariga ko'ra, o'troq aholining asosiy qismi dehqonchilik, hunarmandchilik, kosiblik va savdo-sotiq bilan band bo'lgan [7.288].

Sayohatchi A. V. Kaulbars ta'kidlaydiki, "ko'chmanchi chorvadorlarning sutchilik xo'jaligi ancha rivoj topgan, aholi ehtiyojini ta'minlab qolmay, yog' turida Amudaryoning quyi qismida muhim mahsulot sifatida ishlatilgan. Sut mahsulotlaridan aholi keng foydalangan. Masalan, sut yog' uchun qayta ishlangan va Xo'jaylidagi arman savdogarlariga sotilgan, ular esa yog'ni Krasnovodskka olib ketganlar [3.77]". Bundan tashqari, muallif qoraqalpoqlarda nondan tashqari turli sut mahsulotlarini milliy ovqatlikni tashkil etadi deb yozadi.

Professor R. Balliyeva shunday yozadi: "Chorvachilik Orolbo'yi xalqlari orasida xalq xo'jaligining muhim tarmoqlaridan biridir. Dehqonchilikda bo'lgani kabi chorvachilikda ham har bir xalqning o'ziga xos xususiyatlari bor. Ko'chirish boshqarmasi materiallariga ko'ra, ko'chmanchi hayotini saqlab qolgan guruhlar ya'ni qozoqlar chorva bilan eng ko'p ta'minlangan. O'zbeklar kabi kichik podalarning o'troq guruhlari bo'lgan. Amudaryo bo'limi aholisining deyarli yarmini tashkil etuvchi qoraqalpoqlar ko'chmanchi chorvachilik bilan deyarli kam shug'ullangan. Qoraqalpoqlarning xo'jalik hayotida chorvachilikda, yerni qayta ishlashda va yuk tashishda, shuningdek, sut mahsulotlari bilan ta'minlashda, chorva mollari muhim rol o'ynagan. Qoraqalpog'iston xo'jaliklarida qoramollar faqat yozda yaylovda boqilgan, qishda esa, ular uchun ozuqa tayyorlashga to'g'ri kelgan. Amudaryonng quyi oqimida yashovchi o'zbeklar o'troq hayot kechirganlar. Ular qoramol va ot boqishgan, qo'ychilik bilan shug'ullanishgan [8.160]".

Chorvani mahalliy aholi bozorga olib chiqib sotishgan va sotib olishgan. Bu haqida quyidagicha ma'lumotlar saqlangan. "Chorva bozori yil bo'yi bozor kuni erta tongda boshlanadi, keyin jonli savdo bir joydan ikkinchi joyga ko'chib yuradi.

Sotuvchilar ham xaridorlar ham birinchi navbatda qo'chqor sotiladigan joyga borishadi. qo'chqor va qo'y farovonlikni ifodalaydi (shuning uchun avval uni peshaniga qo'l tekkizib keyin o'z peshonasiga qo'l tekkizish bu inoyatni imo-ishora qiluvchi shaxsga o'tkazishni ifodalaydi). Shundan so'ng ular omad va baxt toppish uchun ot bozoriga borishdi. "qo'y bozordan-baxt bozor" degan gap bor edi. Ular bu marosimni tugatib keyin savdoni boshlashadi[9.13].

Tadqiqotchi M. Sazonova fikriga ko'ra, an'anaviy o'troq qishloq xo'jaligida chorvachilik uning zaruriy tarkibiy qismi sifatida katta ahamiyatga ega. Yerga ishlov berishda, dalalarni sug'orishda, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tegirmonda maydalash va qayta ishlashda chorva mollari ot, ho'kiz, tuyalar va oz miqdorda eshaklar ishlatilgan. Ular sut, go'sht va o'g'it bilan ta'minlagan. Shuningdek, fikrini davom ettiradi u: qo'y va echkildan jun,teri va go'sht olish uchun katta miqyosda va uzoq yaylovlarda boqilgan. Jundan mo'ynali kiyim va bosh kiyim tikilsa, teridan poyabzal va egar buyumlari yasalgan[4.54].

Vohadagi o'troq aholi molini ta'riflab, tabiatshunos G. M. Danilevskiy yozadi "shoxli mol umuman juda mayda kuchi kam va oddiy zotlidir, aholi uni faqat dala ishla uchun saqlaydi[3.77]".

Voha hududidagi molni mayda shoxli va pastli bo'yli bo'lishiga asosiy sabab zotdor mollarni keltirish va urchitish bilan bog'liq muammolar bo'lishi mumkin. Bundan tashqari zebusimon mol zoti ham ana shu ta'riflangan molga yaqin turadi. Aholi chorvani yaxshi yem-xashak bilan ta'minlay olmagan va hatto buzoqlarni emizish ham to'laqonli amalga oshirilmagan bo'lsa kerak. Yuqorida sanab o'tilgan omillar sababli, xo'jalik mollari baquvvat va yirik bo'lmagan.

Xorazm hududidagi qadimgi yirik shoxli qoramollar haqida V.I. Salkin shunday yozadi: "Topilgan suyak soni bo'yicha chorva mollari qo'y va echkildan keyin ikkinchi o'rinda turadi". Bundan bilib olishimiz mumkinki, miloddan avvalgi va milodiy asr boshlarida aholida mayda chorva podasi ko'pchilikni tashkil etgan[5.110].

Chorvachilik mahsulotlaridan yan biri – teri ham muhim rol o'ynagan. Xiva xonligi hududida XIX asrning 70-yillarida ko'n zavodi (Petro-Aleksandorvskda) va teriga birinchi ishlov beruvchi bir qancha korxonalar bo'lgan. Vohadan teri, jun va qorako'l terisi Orenburgga sigir yog'i esa Bokuga olib borilgan[3.77].

Sayohatchi A. Vamberi "O'rta Osiyo bo'ylab sayohat" asarida quyidagi mulohazalarini keltiradi "O'rta Osiyoning bepoyon cho'llarida yoyilgan vohalarga o'xshagan uch xonlikning umumiy ekin ekiladigan yerlari qanchalik unumdor ekanligiga ishonish qiyin. Qishloq xo'jaligining eng ibtidoiy holatiga qaramay mevalar va donlar juda ko'p, ko'p joylarda ular hatto mo'l-ko'llikda mavjud. Buxoro bilan Qo'qonni Xiva bilan tenglashtirib bo'lmasa-da, a'lo uzumlari 10 dan ortiq navlari, zo'r anorlari va ayniqsa, Fors, Angliya va Afg'onistonga ko'p miqdorda eksport qilinayotgan o'riklari bilan alohida ta'kidlash joiz. Donlar har uch xonlikda ham ko'p bo'lib, ular 5 xilda o'sadi: bug'doy, arpa, jugara, tariq va sholi. Ular buni eng yaxshisi deyishad,. bug'doy va jugara Buxoro va Xivada tug'iladi. Qo'qon tariqi

bilan mashhur, arpa hamma joyda unchalik mashhur emas va u ot yemi sifatida ishlatiladi. Ko‘pincha jugara bilan aralashtiriladi. Chorvachilik haqida gap ketganda Turkiston xalqi e‘tiborini uch xil hayvonga: ya‘ni ot, qo‘y va tuyaga qaratadi[10.185].

Xorazm vohasi aholisi hayotida sug‘orma dehqonchilik asosiy o‘rinni egallagani bois chorvachilikda yirik-yirik suruvlar mavjud emas. Bunga albatta voha hududining tekis landshaftli va sug‘orma dehqonchilik uchun qulay joyda joylashgani asosiy sabab bo‘lsa kerak. Shunga qaramasdan mahalliy aholi chorva turlari ichida yirik shoxli qoramol bosh soni jihatdan katta ko‘rsatkichni qayd etib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADBIYOTLAR RO‘YXATI

1. Абдолниёзов Б.А. Хоразм чорвачилиги, дисс... - Т., 1999. – Б.18.
2. Maqsudov I., Jurayev J.Y., Amirov Sh.Q. Chorvachilik asoslari. - Т., 2012. - В.10.
3. Abdolnizozov B.A. Xorazm chorvachiligi qadim zamonlardan hozirgacha. – Urganch, 1992. – D. 13.
4. Сазонова М.В. Традиционное хозяйство узбеков южного Хорезма. Ленинград: Наука, 1978. – Б. 55.
5. Цалкин В.И. Древнее животноводство племен Восточной Европы и Средней Азии. - М.: Наука, 1966. – С. 117.
6. Богданов М.Н. Очерки природы Хивинского оазиса и пустыни Кизыль-кумь. – Ташкент, 1882. – С. 123.
7. Nazirov B., Yaqubova D. O‘zbekistonda yer-suv munosabatlari tarixi. – Termiz: Bekshox print servis, 2023. – В. 288.
8. Баллиева Р. Каракалпакский этнос и традиционное природопользование дисс.на доктора исторический наук. - М., 2003. – С. 160.
9. Голянова Т.Г. Общественные науки в Узбекистане I част. 1964. Издательство Академии Наук Узбекской ССР. - Ташкент. – С.13.
10. Вамбери А. Путешествие по Средней Азии - М.: Восточная литература 2003. – С. 185.